

BO‘LAJAK TARIX FANI O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINING AMALIY FAOLIYATDAGI HOLATI

Yusupova N. A. Jizzah shahar Qozon federal universiteti filiali katta o’qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada intelektual salohiyatli bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligining amaliy holati pedagoglarining turli ta’lim jarayoni komponentlarini loyihalashtirish, ta’lim- tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining shaxsiy-pedagogik professional kasb egasi bo‘lib voyaga yetishining pedagogik- psixologik ta’sir vositalari orqali rivojlantirish yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, yoshlar, ijtimoiylashuv, barkamol, individual, islohot, tashabbuskorlik, volontiyorlik, divergent fikrlash, intellektual, motivatsion, ahloq, tarbiya, prognozlash, integratsiya, jadid, bilim, o‘z-o‘zinio rivojlantirish

Аннотация

В данной статье рассмотрены практическая ситуацияпедагогико-психологической подготовки будущих учителей истории с интеллектуальным потенциалом, проектирование различных компонентов образовательного процесса педагогов, личностные особенности будущих учителей истории, непосредственно связанные с системой образования -развитием освещены педагогические и психологические эффекты

взросления как профессиональной педагогической профессии.

Ключевые слова: образование, молодежь, социализация, зрелость, личность, реформа, инициатива, волонтёрство, дивергентное мышление, интеллектуальное, мотивационное, этическое, воспитание, прогнозирование, интеграция, инновации, познание, саморазвитие.

Annotation

In this article, the practical situation of pedagogical- psychological preparation of future history teachers with intellectual potential, thedesign of various components of the educational process of pedagogues, the personal characteristics of future history teachers directly related to the educational system - the development of the pedagogical and psychological effects of growing up as a professional pedagogic profession is highlighted.

Keywords: education, youth, socialization, mature, individual, reform, initiative, volunteering, divergent thinking, intellectual, motivational, ethics, upbringing, forecasting, integration, innovation, knowledge, self-development

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va fan sohasida amalga oshiriladigan islohotlarning asosiy markazida oliy ta’lim muassaslarida tahsil olayotgan bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda zamonaviy-kasb hunarni puxta egallashlarida o‘qituvchining shaxsiy-pedagogik qobilyatlarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida yosh-avlod tarbiyasida ularni mamlakat va xalq fidoyilari qilib tarbiyalashda yurtimiz ma’rifatparvarlarining ahloqiy-tarbiyaviy masalasiga to‘xtalar ekan: “jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi” deb ta’kidlaganlarida ham yoshlarni yetuk shaxsqilib tarbiyalash masalasiga bildirgan fikr-mulohazalari zamirida ham pirmano so‘zlari ham mavjud.

Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining shaxsiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirishda ta’lim va fan masalalariga mamlakatimiz olimlaridan A.Zununov, M.Ochilov, A.Markova, Sh.Qurbonov, A.A.Verbiskiy, M.Quronovlar ta’lim- tarbiyaga oid o‘z qarashlarida alohida to‘xtalib o‘tgan.

Asqar Zununov o‘z pedagogik qarashlarida xalqimizning ta’lim-tarbiya masalalariga oid merosini quyidagicha talqin qilgan. Olim o‘z tadqiqotlarida ta’limda o‘quvchilarning ham teng huquqli ishtirokchi bo‘lishi, badiiy adabiyotni o‘qitishda uning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor berish, o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish, ularni shaxs sifatida g‘oyalarini ilgari surdi.

A.A.Verbiskiyning tadqiqotlari doirasida o‘qitishning psixologik- pedagogik asoslarini o‘rganib, OTMda faqatgina malakali mutaxassisni emas, balki ijod qiluvchi professionalni shakllantirish, shaxsiy imkoniyatni amalga oshirish talabaga o‘z-o‘zini amalga oshirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun imkoniyatlarni taqdim etishni talab etishini ta’kidlaydi. Mutaxassis individualligini rivojlantirish individual o‘qitish ustuvorligiga, bir talabaning boshqasidan ajratib qo‘yishga tayanishi kerak emasligini ta’kidlash muhim. Shaxsrivojlanishi bu jamoaviy amalga oshiriladigan o‘qitish jarayonining natijasi bo‘lib, unda individual, guruhli va jamoaviy ishlash uchun o‘rin mavjudligia to‘xtalib o‘tadi.

Jumladan, A.Markovaning tadqiqotlarida bo‘laja ko‘qituvchi shaxsining kasbiy-pedagogik ahamiyatli dunyoqarashga oid sifatlarga ega bo‘lmagan pedagog, muayyan psixologik to‘siqlarni his qiladi va ular pedagogning pedagogik faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ularda mavjud kamchiliklarni yengib o‘tishda quyidagi shaxsiy sifatlar masalasi muhim o‘rin egallaydi:

o‘z kasbiga boshqa shaxs yoki odamlar guruhi tomonidan real yoki xayoliy bosim ta’sirida shaxsning xatti-harakati yoki fikrining o‘zgarishiga moyillik;

insonlar orasida ajralib qolishdan qo‘rqish;

juda ham notabiiy ko‘rinishdan, boshqa insonlar fikriga tanqidda tajovuzkor bo‘lib ko‘rinishdan qo‘rqish;

boshqa inson tomonidan qasos olinishidan qo‘rqish;

shaxsiy xavotirlanuvchanlik, o‘ziga ishonmaslik, salbiy qabul qilish (o‘ziga bahosining pastligi);

fikrlashning qat’iyligi kabi sifatlar muhim o‘rin tutadi.

Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligining amaliy holati pedagoglarining turli ta’lim jarayoni komponentlarini loyihalashtirish, ta’lim-tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bo‘lajak tarix fanio‘qituvchilarining shaxsiy-pedagogik, metodik, o‘quv- tarbiyaviy faoliyatga mustaqil tayyorgarlikning amaliy faoliyati, mazmun- mohiyati, kognitiv, individual, kreativ-ijodiy, tashxislash komponetlarini o‘zi- o‘zida rivojlantirish masalalari alohida o‘rin egallaydi.

Jumaladan, bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining shaxsiy-pedagogik metodik tayyorgarlik darajasining kompetensiyaviy yondashuv orqali takomillashtirish, innovatsion ta’lim yondashuvlari kasbiy-metodik tayyorgarligini oshirish jarayonida imitatsion texnologiyalardan foydalanishga ustuvorlik berish asosida rivojlantirish masalasi muhim o‘rin egallaydi.

Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchlarining shaxsiy-pedagogik sifmatlarini rivojlantirishda o‘quv-tarbiya jarayonida, trening mashg‘ulotlarida ularning ijodiy imkoniyatlarini oshirish, ijodiy muhitni yaratishda e’tibor qaratish, masalalarialohida o‘rin egallaydi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik treninglar, kouching treninglar, debat-munozaralar, volontiyorlik guruhlarida faol talaba sifatida ishtirok etish masalasi muhim o‘rin egallaydi.

Xususan, talabalar o‘rtasida alohida jamoalar tashkil etgan holda debat- munozalar – aniq tuzilgan va maxsus tashkil etilgan jamoatchilik fikr almashuvi, dolzarb masalalar bo‘yicha ikki musobaqa guruhlari o‘rtasidagi bahs. Ommaviy munozaralarning bu turi munozara ishtirokchilarining bir-biriga emas, balki uchinchi tomonni ularning to‘g‘riligiga ishontirishini ta’minlashga qaratilgan. Bahs-munozara ishtirokchilari tomonidan ko‘tarilgan masala yuzasidan muayyan fikr hosil qilishga mo‘ljallangan. Debat mavzusiga bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining shaxsiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirishda o‘quv-tarbiyaviy metodik tayyorgarlik orqali jarayon modeli olinadi, guruhlar bahs-munozaraga kirishish orqali aniqlashtirish muhim o‘rin egallaydi .

O‘quv-tarbiya jarayonini guruhdagi talabalar faoliyatini loyihalashtirish orqali tashkil etish maslaasi muhim o‘rin egallaydi. Maslan, jarayonni loyihalashtirish – talabalarning tarixiy muammolarni izlash, tarixiy voqealar bo‘yicha tadqiqot qilish va yechish, natijani mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usulidir. Shuningdek, tarixiy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi hisoblanadi. Bunda tarixiy bilimlarni rivojlantirish, kasbiy-metodik tayyorgarlikka tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi muhim o‘rinegallaydi.

Ma’lumki, bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining shaxsiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirishda o‘qituvchi faqatgina normativ kasbiy-pedagogik faoliyat ijrochisi bo‘la olmasdan, u faol sub’ekt sifatida, kasbiy faoliyatda o‘z hayot faoliyatini amalga oshiradigan, pedagog ong tashuvchisi sifatida xizmat qilishi ham mumkin.

O‘qituvchining asosiy vazifasi – ta’lim, tarbiya, rivojlanish va shakllanish jarayonlarini boshqarishdir. “O‘qituvchi o‘qitish emas, balki ta’limni yo‘naltirish,tarbiyalash emas, balki tarbiya jarayonlarini boshqarishi kerak”. Pedagogning boshqaruv vazifasini aniqlashtirib, mazkur vazifani amalga oshirishning asosiy bosqichlarida alohida to‘xtalib o‘tamiz. Birinchidan, pedagog loyihani, masalan, darsni rejalashtirish bosqichidayoq maqsadni belgilash vazifasini amalga oshirishi kerak. Maqsad – bu pedagogik faoliyatning asosiy omilidir. Aynan maqsad o‘qituvchi va uning o‘quvchilarining mehnatini istalgan natijaga ideal yo‘naltiradi. Mazkur vazifaning mohiyati maqsad va natijaning mos tushishi amalini muvofiqlashtirishdan

iborat bo‘lib, bunda yuqori dinamiklik va ta’lim jarayoni ishtirokchilari xulqini oldindan bilib bo‘lmasligi tufayli muqarrar nomuvofiqliklarni pasaytirishdan iborat.

Ta’lim jarayonini boshqarish vazifasi, avvalo o‘quvchilarning bilimlarigaasoslanadi:

1) predmetli tayyorgarlik darajasi;
2) individual imkoniyatlari;
3) tarbiyalilik darajasi;
4) rivojlanish darajalari orqali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun, bo‘lajk o‘qituvchining shaxsiy-pedagogik faoliyatini tashhislash alohida ahamiyatga egadir. Bo‘lajak o‘quvchining jismoniy va ruhiy rivojlanishlari xususiyatlari, ularning aqliy va axloqiy tarbiyalanganlik darajalari, predmetli tayyorgarliklari darajasini bilmay turib, maqsadni to‘g‘ri belgilashni ham va unga erishishning samarali metodlari va vositalarini tanlashni ham amalgaoshirib bo‘lmaydi.

Adabiyotlar

1. Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020 y. 25 yanvar №-19 son
2. Zunnunov A. tah.ostida O‘zbek pedagogikasi tarixi//.–T.:O‘qituvchi, 1997. – 272 b.
3. Verbiskiy A.A. Gumanitarnoe obrazovanie v sovremennoy Rossii //Vыsshee obrazovaniev Rossii. - 1996. - №1. – S. 79-84.
4. Qurbonov Sh. Ta’lim sifatini boshqarish. –T.: Turon-Iqbol, 2006.–592 b.
5. Quronov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.